

Tog' bag'ridagi Bog'cha qishlog'ida maktab, bog'cha, tibbiy punkt va kutubxona binolari foydalanishga topshirildi



Voha markazidan 250 km, Sariosiyo tumani markazidan 75 km olisda joylashgan “Sangardak” mahallasi Bog'cha qishlog'ida Yangi yil arafasida qator ijtimoiy ob'ektlar foydalanishga topshirildi.

Prezidentning joriy yil 1-2 iyun kunlari viloyatga tashrifi chog'ida berilgan topshiriqqa asosan, 400 nafarga yaqin aholi istiqomat qilayotgan Bog'cha qishlog'idagi bunyodkorlik ishlari uchun 8,7 milliard so'm mablag' yo'naltirilib, “Termiz ta'minot sanoat qurilish” korxonasi tomonidan ta'mirtalab holatda bo'lgan 44-umumta'lim maktabning mavjud binosi zamon talablariga moslab mukammal ta'mirlandi va 80 o'rinli yangi qo'shimcha bino hamda sport zal qurildi.

Shuningdek, 40 o'rinli maktabgacha ta'lim muassasasi, tibbiy punkt va kutubxona binolari ham qurilib foydalanishga topshirildi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda viloyat hokimi To'ra Bobolov, sektor rahbarlari, tuman hokimi, nuroniylar, yoshlar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

– Juda qisqa muddatda chekka qishlog'imizda xalqimiz xayoliga sig'dira olmaydigan ishlar amalga oshirildi. 6 oyda shunday ko'rkam binolar qad rostladi, yo'llar qurildi. Bularni ko'rib, rosti, nevaralarimga havas qilyapman. Biz tog'liklar Prezidentimizga cheksiz rahmat aytamiz. Bu ishlar inson qadri ulug'lanishining amaldagi yaqqol isboti, – deydi Bog'cha qishlog'i nuroniysi Allaberdi ota Bekov.

Tadbirda viloyat Madaniyat boshqarmasi va hududiy bo'limlari ijodiy jamoalari tomonidan bayramona dasturlar namoyish etildi.

Ma'lumot o'rnida, “Sangardak” mahallasining Bog'cha qishlog'ida joriy yilda davlat dasturi asosida qurilishi boshlangan 22 km masofadagi avtomobil yo'li 2022 yilda foydalanishga topshiriladi.